

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI OILADA MUVAFFAQIYATLI TARBIYALASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

**Hasanova Shahzoda Zafarjon qizi**

Buxoro davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi birinchi kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15186078>

**Annotatsiya.** O'zbek oilasidagi bola tarbiyasida mehnat va turmushdagi ijobiy milliy an'analar katta rol o'ynaydi. Uzoq tarixga ega bo'lgan mehmondo'stlik an'anasi keyingi paytlarda ijtimoiy tushuncha va shakllar bilan boyib bormoqda. Yosh avlodni tarbiyalash - murakkab va ko'p qirrali jarayon. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni oilada muvaffaqiyatli tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari hamda ilmiy nazariy asoslari xususida fikr-mulohaza bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, ma'naviy ehtiyoj, ta'lim-tarbiya, oila, ta'lim muassasasi, pedagogic shart-sharoitlar.

## НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УСПЕШНОГО ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА В СЕМЬЕ

**Аннотация.** Положительные национальные традиции в труде и быту играют большую роль в воспитании детей в узбекской семье. Давняя традиция гостеприимства в последнее время обогатилась социальными концепциями и формами. Воспитание подрастающего поколения – сложный и многогранный процесс. В статье дается обзор педагогических возможностей и научно-теоретических основ успешного воспитания детей дошкольного возраста в семье.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, духовная потребность, воспитание, семья, образовательное учреждение, педагогические условия.

## SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS OF SUCCESSFUL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN IN THE FAMILY

**Abstract.** Positive national traditions in work and life play a major role in the upbringing of a child in an Uzbek family. The tradition of hospitality, which has a long history, has recently been enriched with social concepts and forms. Raising the younger generation is a complex and multifaceted process. This article provides feedback on the pedagogical possibilities and scientific theoretical foundations of the successful upbringing of preschool children in the family.

**Keywords:** preschool education, spiritual needs, education, family, educational institution, pedagogical conditions.

**Kirish.** Darhaqiqat, maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni har tomonlama, ham aqlan, ham jismonan barkamol, axloqan yetuk, ma'naviy pok qilib tarbiyalash shu kunning muhim va dolzarb muammolaridan biriga aylanib qoldiki, bu davr va bugungi turmushimizni taqozosidir.

Inson va kalejak avlodning baxt-saodati haqida, uning ta'lim-tarbiyasi dolzarb masala sanaladi.

**Asosiy qism.** Farzand tarbiyasini qachondan boshlamoq kerak? - degan savol ko'pchilikni o'ylantiradi. Ko'pchilik olimlar unga turlicha javob berib kelganlar. Xususan, Ibn Sino bola tarbiyasi bilan uning tug'ilishidan avvalroq, ona qornidan boshlaboq shug'ullanish lozim, besh yoshgacha bo'lgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o'ta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib o'tgan. Aynan maktabgacha davrda bolaning kelajakdagi barcha faoliyat turlarida va umuman hayotda muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam beruvchi umuminsoniy xislatlari shakllanadi.

Bularning barchasi bolaning muvaffaqiyatli tarbiya olishi, shaxsiy faolligi, oiladagi ijobiy muhitda kattalarning qo'llab-quvvatlashi orqali rang-barang faoliyatlarda rivojlanadi.

Ma'rifatparvar olim Abdurauf Fitrat bola tarbiyasida oila eng asosiy rol o'ynashiga e'tibor qaratadi va quyidagi fikrni keltiradi: "Bolalar suvga o'xshaydilar. Suv qaysi rangdagi idishda bo'lsa, o'sha rangda tovlangani kabi, bolalar ham qanday muhitda bo'lsalar, o'sha muhitning ham shunday odat va axloqini qabul qiladilar".

Oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti – ikki tarbiyaviy fenomen ularning har biri bolaga ijtimoiy-madaniy tajribani beradi, lekin ular bir-biri bilan birga bo'lgandagina kichkina insonni katta olamga kirib borishi uchun optimal pedagogik shart-sharoitlar yaratib beradi. Buning uchun bu kuchlarni birlashtirish va o'zaro hamkorlikni samarali tashkil etish muhim sanaladi. Oila jamiyatning boshlang'ich bo'g'ini hisoblanadi. Bola tarbiyasida oilaning mas'uliyati yuqori sanaladi. Bolalarni aqlan yetuk, jismonan sog'lom etib tarbiyalash hamda mustaqil fikrlash ko'nikmaga ega bo'lishida tarbiyachi va ota-onalarga muhim vazifalar yuklatiladi.

Oilada maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarga yaxshiroq ta'sir ko'rsatish uchun avvalambor ularni sevishtirish va hurmat qilish lozim. Chunki kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha bolalar ularni seva olgan hurmat qila olganlarning qadrlaydilar, bergan maslahat va yo'l-yo'riqlarning, turli topshiriqlarni bajonidil ado etadilar. Zero, ota-onaning mehr-muhabati, chinakam hurmati bolalarda eng go'zal axloqiy tuyg'ularni, ayniqsa qadryatni his qilishda yordam beradi. Bu esa unda kattalar orasida ham kamyop bo'lib qolgan insoniylik sifatlardan hisoblanadi.

Bolaning kelajakda qanday inson bo'lib yetishishi ko'proq ota-onasi va o'z oilasiga hamda unda tarkib topgan muhitga bog'liq. "Bola ota-onasidan qayerga ortib boradi" degan gap ayni haqiqat. Demak, farzandlar ota-onalarini davomchilaridir.

Yusuf Xos Xojib “oiladagi” eng ulugʻ fazilat ezgu qiliq va goʻzal hulqdir. Ikkinchisi rostlik, uchinchisi hayot hisoblanadi. Mana shu uch fazilat birlashsa kishi baxtiyor boʻladi, qut iqbol uning huzuriga bosh urib keladi. Chunki kishining xulqi goʻzal boʻlsa uni barcha xalq sevadi. “Xulqi yuz boʻlgan kishiga toʻrdan joy tegadi” - degan edi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni oilada muvaffaqiyatli tarbiyalash xususida gapirilganda yuqorida eslatib oʻtganimizdek, uning asosiy manbasi oiladagi muhabbat, ishonch, oʻzaro hurmatni tashkil qiladi. Hech kimga sir emaski, oilaning koʻrki ham totuvligi ham bekamu koʻstligi ham farzandlarning qobilu moʻminligi ham, muvaffaqiyatli tarbiya berishga bogʻliq.

Oilda ota-onaning shu oiladagi kattalarni yurish turishidan tartib soʻz madaniyati, kiyinishi, kishilar bilan muomalasi, xatto atrof-muhitga munosabati va shu singari oddiy boʻlib koʻrinadigan xolatlar ham bola tarbiyasiga katta taʼsir qiladi. Hozirda maktabgacha taʼlim yoshdagi bolalarni yetuk kishilar qilib tarbiyalash, tarbiya berish muhim vazifa sanaladi. Chunki, millatimiz ertasi, jamiyatimizning kelgusi tarbiya qilayotgan maktabgacha taʼlim yoshdagi bolalarimiz qoʻlida.

Maktabgacha taʼlim yoshdagi bolalarni axloqan pok, jismonan sogʻlom, yetuk kishilar qilib tarbiyalash oilaning oldiga qoʻyilayotgan eng muhim talablardan biridir. Buning uchun har bir ota-ona oʻz farzandining ezgu maqsadga intiluvchan, kattalarni eʼzozlaygigan kichiklarga muruvvatli, oʻqish va ishda matonatli qatʼiy, tashabuskor, uyushqoq, qiyinchiliklardan qoʻrqmaydigan kishilar qilib tarbiyalashlari lozim.

Ayniqsa oilada katta yoshli bolalar bilan toʻgʻri munosabatda boʻlish juda muhim ahamiyatga ega. Bola ulgʻaygan sari kattalar buyrugʻini yoqtirmaydigan boʻlib boradi. Bu buyruq koʻpincha qarshilik koʻrsatish, xatto oqilona talablarni bajarishdan bosh tortish xolarlarini ham keltirib chiqaradi. Shunday paytlarda bolaga muomala tarzini oʻrgatish lozim. Buyruq berish oʻrniga ishontirish usulini qoʻllash kerak, toki ana shu bola shu ishni qilishni shartligini tushinsin. Ana shunda bola har bir ishni ongli ravishda bajarishga tushunsin. Agar katta yoshdagi bolaga pand-nasihat qilinaversa, uning gʻashiga tegishi mumkin.

Oila balaning yuragiga yaqin tarbiyachidir. Bola ota-onasiga ishonadi. Shuning uchun ham maʼlum davr mobaynida ota-ona bola uchun turmush haqida fikr yurituvchi kishilarga axloqiy baho beruvchi yoʻlboshchi boʻlib hizmat qiladi.

Har qanday tarbiya elementlari dastlab oilada, keyin maktabgacha taʼlim tashkilotida, keyin maktabda tarkib topa boshlaydi.

Oilaviy hayot muammosi oila aʼzolari oʻrtasida munosabat farzand tarbiyasi davlat ahamiyatiga ega boʻlgan masaladir. Baʼzan bolalarni yomon qiliqlarini, ota-onalarini hurmat qilmaganliklarini koʻrsak, odatda gʻazablanadi kishi.

Bolalarni oilada to'g'ri tarbiyalashda butun oilaviy xo'jalikni oqilona tashkil etilishi bolalarni qo'llaridan keladigan ishlarga jalb qilinishi katta ahamiyatga ega. Bolani muayyan mehnatni bajara olishga nechog'lik o'rgatilishi va uni kundalik mehnat qilishga odatlantirgan bolada oilaning foydali a'zosi bo'lish istagini oladigan axloq tarbiyasi vazifalarni ham shu qadar muvaffaqiyatli hal qiladigan bo'lib qoladi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR.** Hozirda ko'plab psixodiagnostik vositalar testlar, metodikalar, so'rovnomalar mavjud bo'lib ulardan keng foydalanilmoqda. Shunday tashxis vositalaridan biri bu "Oila rasmi" nomi bilan keng tarqalgan proektiv testidir. Eston psixologi G.Xomentaukas tomonidan ishlab chiqilgan mashxur «Oila rasmi» testi kattalarga dunyoni bola ko'zi bilan ko'rishga yordam beruvchi vositadir. Bu test bolaning o'z oilasiga bergan shaxsiy bahosi haqida, oila a'zolari bilan bo'lgan munosabatlari, bola nimalarni idrok qila olmasligi, nimalarni kuchli xayajon bilan his qilishi haqida tushuncha beradi. Nimalar bolani ongsiz ravishda xavotirga solsa, xuddi shu narsalar bolalarning rasmlarida ifodalanadi. Oila rasmi bola shaxsining psixologik portretidir. Bu testni 3 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalarda qo'llash mumkin. Psixologlar bu testdan bolaning oiladagi "Men"ini o'rganish maqsadida foydalanadilar.

Bu testni o'tkazish pedagogik va psixologik amaliyotda qulay va ommabop. Bu testni o'qituvchilar, ta'lim muassasalari psixologlari va hatto ota – onalar o'tkazishlari mumkin.

Tadqiqotni o'tkazish uchun 21 x 29 sm hajmidagi oq qog'oz, o'chirg'ich kerak. Bolaga: «Iltimos, o'z oilang rasmini chizib ber» – deb aytiladi. Lekin «oila» nima ekanligi haqida tushuntirilmaydi, chunki, test talabi shuni taqozo etadi. Agar, bolaga tushuncha berilsa tadqiqot o'tkazishning maqsadi o'zgaradi. Bolaga rasm chizish topshiriq berilganda vaqt chegaralanmaydi. Topshiriqni bola bajarayotganda quyidagilarga e'tibor berish kerak: tarkiblarni chizish ketma – ketligi, tarkiblarni o'chirilishi, bolaning izohlarga, his – hayajonga berilishi va h.k. Topshiriq bajarib bo'lgandan so'ng bolaga quyidagi savollar berilib suhbat o'tkaziladi:

- 1) Aytchi, sen bu rasmda kimlarni chizding?
- 2) Ular qaerdalar?
- 3) Ular nima qilyaptilar?
- 4) Ular xursandmilar, yoki biron narsadan zerikkanmilar?
- 5) Ulardan qaysi biri baxtli? Nimaga?
- 6) Ulardan qaysi biri juda baxtsiz? Nimaga?

"Oila rasmi" metodikasi natijalarini tahlil qilishda bolaning yoshi, oila a'zolarining sonini hamda aka, uka, opa, yoki singillarining yoshini bilish maqsadga muvofiq. Shuningdek, bola chizgan rasm tahlil qilinayotganda suhbatdagi ma'lumotlar va quyidagi shkalalariga e'tibor qaratish lozim:

1) Bolaning haqiqiy oilasi uning chizgan oila rasmi bilan taqqoslanadi. Oiladagi o'zaro munosabatlar va undagi muhit ijobiy bo'lsa, bola oiladagi barcha a'zolarining rasmini chizadi.

Agar rasmda oila a'zolarining birontasi chizilmagan bo'lsa, demak oilaviy vaziyat mukammal emas.

2) Agar, rasmda oilaga taalluqli bo'lmagan odamlarning rasmi chizilgan bo'lsa: a) e'tiborsizlik, yolg'izlanib qolish, b) kuchli xavotirlanish darajasi.

3) odatda bolalar oilaning qaysi bir a'zosi bilan nizoli muammo vujudga kelgan bo'lsa, shuni chizishni unutib qo'yadilar. Ko'p hollarda aka, uka yoki opa, singillarning rasmini chizmaydilar. Bu bilan bola oilada o'zining ustunligini, ota va onasining mehriga to'yimaganligini ifodalaydi. Masalan, bola o'zini ota va onasining o'rtasida chizib ko'rsatgan, kichik ukasi yoki singlisini esa umuman chizmagan.

4) Agar bola o'z rasmini chizmagan bo'lsa yoki oilasining o'rniga faqat o'zinigina chizsa, demak bu holda oilada umumiy birlikning yo'qligidan dalolat beradi. 5) Agar, oilasining o'rniga bola hayvonlar va qushlarni chizsa, demak bolaga e'tibor va hissiy muloyimlik yetishmaydi.

6) Agar bola oila a'zolarining rasmini qo'llari tutashgan va bir qatorda chizgan bo'lsa, demak bu oiladagi psixologik iqlim yaxshi. Agar, unday bo'lmasa, demak aksincha.

7) Agar, oila a'zolari guruh – guruh bo'lib chizilgan bo'lsa, demak, bu oilada kichik guruhlar borligini bildiradi.

8) Oila a'zolarining kiyimlarida ko'p tarkiblarning borligi, rangligi oilaviy munosabatlarning ijobiyligini ko'rsatadi va aksincha oilaviy munosabatlarda adovat bo'lsa, oila a'zolarining gavdalari to'liq bo'lmay, kiyimsiz yoki tugatilmay chiziladi.

9) Bolalar odatda otasi va onasini juda katta qilib chizadi. Demak, oiladagi munosabatlar tenglik asosida, bola o'zini oilada kattalardek xis qiladi.

10) Agar bolalar o'zlarini otasi va onasidan ham katta qilib chizsa, demak bolani o'z – o'zini baholash darajasi juda ham yuqori.

11) Agar bola o'zini boshqa oila a'zolariga nisbatan juda kichik ota – onasi tomonidan g'amhurlik talab qiladi.

12) Agar bola o'z rasmini qo'llarini yuqoriga ko'targan holda, barmoqlarini uzun qilib chizgan bo'lsa, bu uning tajovuzkorligidan xabar qiladi. Ba'zan bunday rasmlarni yuvosh bolalar ham o'zining atrofidagi odamlarga nisbatan tajavuzkorona ruhda ekanligi, lekin bu holat yashirinligi ma'lum bo'ladi hamda bola kuchli va o'zgalar ustidan hukmron bo'lish hohishi borligini bildiradi.

13) Agar bola oila a'zolarining qo'llarini mushtcha tugilgan holda, barmoqlari uzun holatda chizsa, demak u shu oila a'zosining o'ziga nisbatan tajovuzkorligini his qiladi.

14) Agar bola o'zining tishlarini katta qilib chizgan bo'lsa, demak unda tishlash, baqirish, qo'pollik qilishga moyillik kuchlidir. Agar bola boshqa oila a'zolarini shunday holatda chizsa, ana shu oila a'zosiga nisbatan qo'rquv va dushmanlikni his qiladi. Oila rasmi testi bolaning yosh xususiyatlari bilan bog'liqdir. 3 – 4 yoshdagi bolalar odam gavdasini chiziqlar bilan to'liq bo'lmagan holda chizadilar. 5 – 7 yoshli bolalarning rasmi esa ancha boyroq bo'lib, gavda tuzilishlari to'liq, rasmlar tugallangan bo'ladi.

**XULOSA.** Oilani kinetik rasmi metodikasi faqat bugunni, o'tmishni aks ettirib qolmay shu bilan birga kelajakka qaratilgandir, chunki maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchisi rasm chizishda vaziyatni tushunib olishga intiladi, rasmida ifodalangan oiladagi shaxslararo munosabat va muvaffaqiyatli tarbiya mezonlarini o'ziga xos tarzda talqin qiladi, oila haqidagi tasavvurini namoyon etadi. Har bir rasmda bolaning tasavvuridagi "ota-ona" ijtimoiy rollari aks etadi, oilaviy munosabatlar psixologiyasi ko'rinadi.

Ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabat bola muvaffaqiyatli tarbiya mezonlari to'g'ri shakllanishidagi yetakchi omildir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning oila haqidagi tasavvurlarini o'rganish, har bir bolaning oilaviy muhiti va ota-onasining bolaga munosabati haqidagi ma'lumotlar tarbiyachi-pedagoglarga oila bilan hamkorlikda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Bu esa maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonining sifati va samaradorligini ta'minlaydi.

## REFERENCES

1. Рахимов Ф. Б., Шарипова М. Б. МЕСТО ИННОВАЦИЙ В РЕШЕНИИ СОВРЕМЕННЫХ ПРОБЛЕМ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ //Academy. – 2020. – №. 5 (56).
2. Шарипова М. Б., Садуллоева М. Б. К. ПРОФЕССИЯ «УЧИТЕЛЬ» И ЕЁ РОЛЬ В ОБЩЕСТВЕ //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 1 (46)
3. Шарипова М. Б., Мустакимова Г. А. Наследие мыслителей в эстетическом воспитании учащихся начальной школы //Вестник магистратуры. – 2019. – №. 10-5. – С. 48-49.
4. Ахмедова М. Ш., Шарипова М. Б. ВОСПИТАНИЕ РЕБЕНКА НА ОСНОВЕ НАРОДНЫХ ТРАДИЦИЙ //Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч. – 2016. – С. 118.
5. Шарипова М. Б., Истамова З. Особенности этического воспитания детей дошкольного возраста //Вестник магистратуры. – 2020. – №. 1-5. – С. 39.

6. Шарипова М. Б., Саъдуллаева М. Б. К. РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ ДЕТЕЙ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 6 (51).
7. Шарипова М. Б., Ашурова Ф. А. Межличностные отношения в дошкольном возрасте //Вестник магистратуры. – 2020. – №. 1-5. – С. 35
8. Шарипова М. Б., Нейматова Ш. Н. Формирование эстетической культуры воспитанников дошкольных образовательных учреждений //Вестник магистратуры. – 2020. – №. 3-3. – С. 113.
9. Камилова, Г. А., Курбанова, Г. Р., & Джаббарова, С. З. (2020). Особенности формирования педагогических навыков у воспитателей дошкольно-образовательных учреждений. *Academy*, (5 (56)), 25-27.
10. Камилова, Г. А., & Тураева, О. С. К. (2021). ФОРМИРОВАНИЕ ДИАГНОСТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Проблемы науки*, (4 (63)), 50-52.
11. Камилова, Г. А., & Курбонова, Г. Р. (2020). Эффективность экологического образования: образование дошкольников с помощью педагогических технологий. *Academy*, (12 (63)), 60-62.
12. Камилова, Г. А., & Курбонова, Г. Р. (2020). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ОБРАЗОВАНИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ С ПОМОЩЬЮ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ. *Academy*, (12), 60-62.
13. Камилова, Г. А. (2021). Развитие системы дошкольного образования. *Вестник науки и образования*, (16-2 (119)), 86-88.
14. Alimovna, K. G. (2022). Laws of Ecological Education. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(2), 241-244.
15. KAMILOVA, G. (2024). EKOLOGIK TARBIYADA PAREMIOLOGIYA VA UNING XUSUSIYATLARI. *News of the NUUz*, 1(1.1), 83-86.
16. Kamilova, G. A. (2024). PARAMERIK JANRLAR VOSITASIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA PSIXOLOGIK YONDASHUV. *Inter education & global study*, (5), 565-5574.
17. Камилова, Г. А. (2023). Мактабгача Таълим Ташкилотларида Экологик Тарбия. *Miasto Przyszłości*, 42, 330-333.
18. Kamilova, G. A., & Rozieva, Z. E. (2022). Botirova. *Ню А. Maktabgacha talim tashkilotlarida bolalarni ekologik-gigienik tarbiyalash imkoniyatlari. Maktabgacha talim-Maktab-Oliy talim konsepsiyasi muammo, yechimlar va istiqbollar xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Buxoro*, 46-48.

19. Kamilova, G. A., & Rozieva, Z. E. (2022). Botirova. *Ню А. Maktabgacha talim tashkilotlarida bolalarni ekologik-gigienik tarbiyalash imkoniyatlari. Maktabgacha talim-Maktab-Oliy talim konsepsiyasi muammo, yechimlar va istiqbollar xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Buxoro*, 46-48.
20. Kamilova, G. (2020). Maktabgacha talim muassasalarida ekologik tarbiyani tashkil etishda integrativ yondashuv. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 1(1).
21. Камилова, Г. А., & Нарзиева, Д. Б. (2022). Повышение экономической грамотности у детей дошкольного возраста с помощью развития коммуникативных компетенций. *Вестник науки и образования*, (8 (128)), 44-46.
22. Камилова, Г. А., & Нарзиева, Д. Б. (2022). КОММУНИКАТИВНЫЕ КОМПЕТЕНЦИИ И ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ГРАМОТНОСТЬ. *Вестник науки и образования*, (8 (128)), 47-50.
23. Kamilova, G. A. Go'Zal Rajab Qizi Qurbonova (2021). *МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTIARIGA RAHBARLIK VA BOSHQARISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV. Scientific progress*, 2(7), 1149-1153.
24. Kamilova, G. A. (2021). *МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTIARIGA RAHBARLIK VA BOSHQARISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV. Scientific progress*, 2(7), 1149-1153.
25. Камилова, Г. А., Султонова, М. И., & Бобожонова, М. А. (2023). ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТЕХНОЛОГИИ STEAM В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ. *Вестник науки и образования*, (5 (136)-2), 41-44.
26. Safarova, S., & Kamilova, G. (2024). *МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING ERKIN FIKIRLASHINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL USULLARNING ANAMIYATI. Modern Science and Research*, 3(12), 504-507.
27. Камилова, Г. А., Мухаммедова, М. М., & Жабборова, О. С. К. (2023). МЕТОДИКА СИСТЕМАТИЧЕСКОГО ВКЛЮЧЕНИЯ МЕНТАЛЬНОЙ АРИФМЕТИКИ ЧЕРЕЗ ИГРЫ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ. *Вестник науки и образования*, (5 (136)-2), 38-41.
28. Камилова, Г. А., & Кулиева, Х. Г. (2023). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ. *Вестник науки и образования*, (4 (135)), 82-84.
29. Jabbarov, I. A. U. (2022). TYPOLOGY AND FUNCTIONS OF A COMPLIMENT. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(6), 854-860.

30. Alimovna, K. G., & Abduraufovna, B. A. (2025). INNOVATIVE APPROACHES TO CREATING A DEVELOPMENTAL ENVIRONMENT FOR PRESCHOOL CHILDREN. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 3(3), 1-5.
31. Камилова, Г. А., & Тохирова, Ш. Б. К. (2023). ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ОБУЧЕНИЯ ВТОРОМУ ЯЗЫКУ В РАЗВИТИИ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО ПОТЕНЦИАЛА ДЕТЕЙ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ. *Вестник науки и образования*, (4 (135)), 84-88.
32. Kamilova, G. A., & Jo'rayeva, D. R. (2022). Maktabgacha yoshdagi bolalarni sifatli maktab ta'limiga tayyorlash imkoniyatlari, "Maktabgacha ta'lim-maktab-oliy ta'lim" konsepsiyasi: muammo, yechimlar va istiqbollar xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari.
33. Rahmidinovna, Z. D. (2024). THE GOALS AND OBJECTIVES OF INTEGRATED CLASSES IN ELEMENTARY SCHOOL TECHNOLOGY CLASSES AND THE IMPORTANCE OF INTERDISCIPLINARY COMMUNICATION. *European International Journal of Pedagogics*, 4(11), 50-55.